O'SMIRLAR O'RTASIDA DEVIANT XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI VA ULARNING TASNIFI

Zoyirova Gulnoza Husniddin qizi
Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va Ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" yo'nalishi 207-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24419462

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida o'smirlar sharoitida o'smirlar o'rtasida uchraydigan deviant (og'ishgan) xulq-atvor shakllarining kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik, biologik,oilaviy hamda maktab muhitiga bog'liq omillari keng ko'lamli ilmiy-nazariy tahlil qilingan. O'smirlik davrining o'ziga xos inqirozli xususiyatlari, shaxsiyatning psixofizik rivojlanishidagi ziddiyatlar va "kattalik tuyg'yusi"ning namoyon bo'lishi davridagi xavf-xatarlar atroflicha ochib berilgan. Tadqiqotda deviant xulq-atvorning bugungi kundagi zamonaviy va mukammal tasnifi-delinkvent (huquqbuzarlik), addiktiv (qaramlik), agressiv-destruktiv (tajovuzkorlik, bulling) hamda autoagressiv (o'ziga jarohat yetkazish va suisid) ko'rinishlari tizimlashtirilgan. Shuningdek, xulqi og'ishgan o'smirlar erta aniqlash, ularda profilaktika ishlarini olib boorish, psixokorreksiya hamda resotsializatsiya jarayonlarini tashkil etishda oila, maktab, mahalla hamda ijtimoiy xizmatlar hamkorligining institutsional va amaliy mexanizmlari atroflicha ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, deviant xulq-atvor, ijtimoiy-psixologik omillar, delinkventlik, addiksiya, agressiya, autoagressiya, resotsializatsiya, psixokorreksiya, profilaktika, nafs tarbiyasi, qiyin tarbiyalanuvchi.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi globallashuv va axborotlashuv bosqichi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda texnologik munosabatlarning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu o'zgarishlar o'z navbatida, shaxsning shakllanish jarayoniga, ayniqsa, uning eng nozik, murakkab va inqirozli davri hisoblangan o'smirlik bosqichiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlik- bu biologik yetishish, psixologik o'z-o'zini anglash va ijtimoiy ulg'ayish jarayonlari kesish nuqtasida turgan o'tish davri bo'lib, unda shaxsning kelgusidagi hayotiy yo'nalishlari, axloqiy tamoyillari va qadriyatlar tizimi poydevori qo'yiladi.

Biroq, mazkur yosh davrining o'iga xos ziddiyatlari, shaxsiy mustaqillikka intilish va "kattalik tuyg'yusi"ning namoyon bo'lishi ko'p hollarda tashqi va ichki xavf omillari bilan to'qnashuv sodir bo'ladi. Buning natijasida o'smirlar muhitida jamiyat tomonidan qabul qilingan huquqiy, axloqiy va ijtimoiy me'yorlardan og'ish holatlari-deviant xulq-atvor ko'rinishlarining ortib borishi kuzatilmoqda. Deviant xulq-atvor muammosi shunchaki individual psixologik qiyinchilik bo'lib qolmay, balki millat genofondi, ijtimoiy xavfsizlik va jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi global muammolardan biriga aylandi. Shu bois, o'smirlarda xulq-atvordan og'ishlarning kelib chiqish sabablarini chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilish, ularning ko'p omilli tabiatini o'rganish va zamonaviy tasnifini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili:

Ilmiy adabiyotlarda "deviatsiya" (lotincha deviatio- chetlanish) tushunchasi jamiyatda o'rnatilgan huquqiy, axloqiy va madaniy me'yorlarga mos kelmaydigan hamda ularga zid bo'lgan xatti-harakatlar tizimini anglatadi. Psixologik va pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlarda ta'kidlanganidek , deviant xulq-atvor birdaniga yuzaga kelmaydigan, balki uzoq davom etadigan ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya, shaxsiy ziddiyatlar hamda tarbiyaviy bo'shliqlar natijasida shakllanadigan murakkab jarayon ekanligi e'tirof etiladi.

O'smirlik davridagi deviantlikning yuzaga kelishida shaxsning ichki ruhiy olami va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bir tomondan, o'smir o'zining individual qadr-qimmatini tasdiqlash, kattalar nazoratidan xoli bo'lish va tengdoshlari orasida yetakchi mavqega ega bo'lishni istaydi. Ikkinchi tomondan, uning hayotiy tajribasi yetishmasligi, emotsional o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari to'la skakllanmagani va stress holatlariga bardosh berish darajasining pastligi uni deskruktiv yo'llarga boshlab boradi. Shuningdek, G'urbanov va Karimova tadqiqotlarida o'smir ijtimoiy psixologiyasida oilaviy mikro-muhit va tengdoshlar guruhining yetakchi mavqei chuqur tahlil qilingan.

Deviant xulq-atvorni tahlil qilishda olimlar ikki asosiy mezonni ilgari suradilar: obyektiv-ijtimoiy va subyektiv-psixologik mezonlar. Obyektiv mezon xatti-harakatining jamiyat qonun-qoidalarga zid kelishi va atrofidagilarga zarar yetkazishini baholasa, subyektiv mezon shaxsning o'z ichki muvozanatini yo'qotishi, jamiyatga nisbatan ichki noroziligi va emotsional beqarorligini aks ettiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki o'smirlar xulq-atvorida og'ishlarning paydo bo'lishi ko'p omili (multifaktorli) xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu omillarni asosiy to'rtta guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1.Biologik va psixofiziologik omillar: O'smirlik davridagi keskin gormonal portlash, markaziy asab tizimining qayta qurilishi, bosh miya faoliyatidagi funksional o'zgarishlar shaxsning emotsional reaksiyalariga bevosita ta'sir qiladi. Asab tizimining zaifligi, qo'zg'aluvchanlikning tormozlanish jarayonlaridan ustun kelishi o'smirda impulsivlik, jahldorlik va tez o'zgaruvchan kayfiyatni keltirib chiqaradi. Shuningdek, irsiy moyillik hamda erta yoshdagi psixofizik jarohatlar ham moslashuvchanlikni pasaytiradi.

2.Psixologik va shaxsiy omillar:O'smirning o'z-o'zini baholashdagi deformatsiyalar (haddan tashqari past yoki yuqori baho), emotsional intellektning yetishmasligi, empatiya tuyg'usining zaifligi deviant xulqning ikki poydevorini tashkil qiladi. Xarakterning aksentuatsiyalashgan turlari (gipertim, epileptoid, schizoid va boshqalar) o'smirning tashqi salbiy ta'sirlarga o'ta ta'sirchan bo'lishiga olib keladi.

3.Oilaviy va mikro-ijtimoiy omillar: Oila shaxs ijtimoiylashuvining asosiy instituti hisoblanadi. Disfunksional oilalar, ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar, zo'ravonlik muhiti o'smirda bazaviy xavfsizlik tuyg'usini yo'qotadi. Tarbiyadagi xatolar o'ta nazoratsizlik (gipoproteksiya) yoki haddan tashqari qattiq tazyiq va cheklovlar (giperproteksiya) o'smirda isyonkorlik va antisotsial reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Mehnat migratsiyasi tufayli ota-ona tarbiyasidan uzoqda qolgan o'smirlarda nazoratsizlik omili keskin kuchayadi.

4. Ijtimoiy-madaniy va muhit omillari: Tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri ("ko'cha" muhiti) o'smir hayotida muhim o'rin tutadi. Maktabdagi dezadaptatsiya va o'qishdagi omadsizliklar ta'lim jarayonidan sovishga olib keladi. Zamonaviy davrda esa virtual muhit, ijtimoiy tarmoqlardagi deskruktiv oqimlar hamda kiberbulling kabi yangi turdagi kiberdeviatsiyalar shakllanmoqda.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Zamonaviy ijtimoiy-psixologik yondashuvlarga ko'ra, o'smirlar o'rtasidagi og'ishgan xulq-atvor shakllari ularning namoyon bo'lish yo'nalishi va ijtimoiy xavfsizlik darajasiga kora quyidagi asosiy turlarga tasniflanadi:

_ **Delinkvent xulq-atvor:** Jamiyatda o'rnatilgan huquqiy me'yor va qonunlarni buzuvchi, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakatlar (mayda bezorilik, mulkka zarar yetkazish, o'g'rilik, darslarni surunkali qoldirish, uydan qochish).

_ **Addiktiv xulq-atvor:**Reallikdan qochish va psixologik zo'riqishlarni sun'iy vositalar yordamida yengishga intilish. Bu kimyoviy addiksiyalar (tamaki, alkogol, psixoaktiv moddalar) va nokimyoviy addiksiyalarga (internetga qaramlik, kompyuter o'yinlari) bo'linadi.

_ **Agressiv va destruktiv xulq-atvor:**Atrofdagilarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiq o'tkazish, haqorat qilish hamda maktab va jamoat joylarida bulling va kiberbulling shaklida namoyon bo'ladigan tajovuzkor xatti-harakatlar.

_**Autoagressiv xulq-atvor:**Tajovuzkor shaxsning o'ziga qaratilishi. Bunga o'ziga jarohat yetkazish (self-harm) va suisidal (o'z joniga qasd qilishga urinish) xatti-harakatlar kiradi.

Xulosa

O'smirlar o'rtasidagi deviant xulq-atvor-bu biologikal, psixologik, oilaviy va ijtimoiy-muhit omillarining chigal to'qnashuvi natijasida yuzaga kealdigan o'ta murakkab va ko'p qirrali fenomendir. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, og'ishgan xulq-atvorni bartaraf etishda faqatgina ta'qiqlovchi yoki jazolovchi ma'muriy choralarga tayanib bo'lmaydi, chunki bu choralar o'smirda yanada kuchli qarshilik va agressiyani keltirib chiqarishi mumkin. Aksincha, deviant xulq-atvorni erta aniqlash va profilaktika qilish jarayoni o'smir shaxsiyatini hurmat qilish, uning psixologik ehtiyojlarini to'g'ri anglash hamda ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirishga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimova.V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. -Toshkent. Fan va texnologiya, 2020.-264-b.
2. Qodirov.O, Xotamov.Sh, Rahmatov F, Shonazarov.A. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent:Noshir, 2019 -240-b.
3. Ziyomuhammedov. B. Pedagogika va psixologiya asoslari. _Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.-192-b.
4. G'urbanov. E. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda deviant xulq-atvor sotsiologiyasi. – Toshkent: Adolat,2022-310-b.
5. Shoyimova. Sh. Mutaxassislikka kirish: Ijtimoiy ish va psixologiya. -Toshkent: Akademnashr, 2021-216-b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.